

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

IMOM NASOIYNING MADANIY ME'ROSI LEGACY OF IMAM NASAI КУЛЬТУРНОЕ НАСЛЕДИЕ ИМАМА НАСАИ

Ilmiy rahbar: X.U.Samatov

Aminjon Ravshan o'g'li Rustamov

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot

Texnologiyalari universiteti Samarqand filiali

Telekommunikatsiya texnologiyalari va kasb ta'limi

fakulteti RI 23-10 guruhi talabasi

pochta manzili: aminrustamov0424@gmail.com

Annotatsiya:

Ushbu maqolada buyuk muhaddis Imom Ahmad An-Nasoiyning hayoti, ijodiy faoliyati va qoldirgan madaniy me'roslari haqidagi fikrlar ilgari suriladi. Uning hadislari va rivoyatlarining yoshlar tarbiyasi uchun qanchalik muhim ekanligi muhokama qilinadi.

Abstract:

This article presents ideas about the life, creative work and legacy of the great Muhaddith Imam Ahmad An-Nasai. It will be discussed how important his hadiths and narrations are for the behavior of young people.

Аннотация:

В данной статье представлены представления о жизни, творчестве и наследии великого мухаддиса имама Ахмада Ан-Насаи. Будет обсуждаться, насколько важны его хадисы и повествования для поведения молодежи.

Kalit so'zlar: Islom, axloq, huquq, hadis, muhaddis, fiqh, sahih, qiyomat, tarbiya, me'ros.

Payg'ambarimiz Muhammad sallalohu alayhi vasallam tarixda Qur'onda bitilgan barcha huquqiy va axloqiy masalalarni tushuntirish va izoh berish maqsadida o'z hadislarini aytgan. Bu hadislarini uning safdoshlari doim yodda saqlashga harakat qilishgan. Payg'ambar Muhammad (s.a.v) bu olamdan ko'z yumgach uning bu hadislarini nasihat qilish odat tusiga kirdi va vaqt o'tishi bilan bir guruh



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

musulmonlar bu hadislarni qog'ozga tushura boshlashdi. Ushbu soha rivojlanib turli yo'nalishlari paydo bo'ldi va bu ish bilan shug'ullanuvchilar safi ham kengaydi. Keyinchalik, IX–X arslarda bu sohaning yetuk muhaddislar ishonarli deb tanlangan hadislarni yig'ib 6 ta hadis to'plamini tuzishdi. Bular: „Sahihi Buxoriy“, „Sahihi Muslim“, „Sahihi Termiziy“, „Sunani Abi Dovud“, „Sunani Ibn Moja“, „Sunani Nasoiy“. Bu to'plamlarning biri bo'lgan „Sunani Nasoiy“ yaratuvchisi Imom an-Nasoiy alohida e'tirof etiladi.

Abu Abdurahmon Ahmad ibn Shuayb ibn Ali ibn Sinon ibn Bahr Nasoiy 829-yil (hijriy 214-yil)da Islom olamida mashxur bo'lgan G'arbiy Osiyoda joylashgan Xurosondagi Marv shahriga yaqin bo'lgan Naso shahrida tavallud topgan. Tarixdan ma'lumki, bu davrda hadis va fiqh ilmi bu hududlarda eng cho'qqisiga chiqqan payt deb e'tirof etiladi. Shu bilan birgalikda, Islom ilmining ko'plab ulamolari ham shu davrda yetishib chiqishgan va ulardan biri Imon Nasoiy deb sanaladi. U dastlabki ta'limini o'zi tugilib o'sgan yurtida oldi va yoshlik chog'laridanoq o'z shahrida bo'lib o'tadigan hadis ilmiga oid yig'in va davralarda qatnashib kelardi va bu uning o'z sohasining yetuk shaxsi bo'lishiga turtki bo'ldi deyish mubolag'a bo'lmaydi. Ul zot 15 yoshida o'zining birinchi safarini Balxga ya'ni, Imom Qutaybaning huzurlariga borish bilan boshladi. Keyinchalik mashxur muttasib va ulamolaridan hadislar to'plash uchun Iroq, Kufa, Hijoz, Suriya, Misr va Arabiston yarimorolining ko'plab sharharlarida bo'ldi. So'ng, u Misrda bir muncha vaqt yashagan. U ko'plab ustozlar qo'lida ta'lim olgan va ulardan eng mashhurlari Imom al-Buxoriy, Imom Abu Dovud as-Sijistoni, Qutayba ibn Sa'id, Is'hoq ibn Ash'as va Muhammad ibn Ashshor bo'lgan [1- B.73-74]. Shu o'rinda aytish joizki, Imom Nasoiy nafaqat shogird bo'lgan, balki Abulqosim at-Taraboni, Abu Ja'far Ahmad at-Tahoviy, Ibn As-Sunniy kabi taniqli ulamolarga ustoz ham bo'lganlar [2- B.17-18].

Bunga qo'shimcha qilib, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali dotsenti Xurshid O'lmasjonovich Samatov o'zining "Academic Research in Educational Science" jurnalidagi maqolasida ham Imom Ahmad An-Nasoiyni oltita nufuzli hadis to'plamlarining mualliflaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tadi [4].

Imom Nasoiyning ta'lif etgan kitoblariga kelsak, „Sunani kubro va sug'ro“, „Xasoisu fiy fazli Ali ibn abu Tolib va oli bayt“, „Kitobu zuafo val matrukiyn“, „Manosiku Nasaiy“, „Jam'u musnad Molik ibn Anas va musnad ali ibn Abi Tolib“ kabilari eng mashhurlari hisoblanadi [5].



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Imom Nasoiyning “as-Sunani al-Kubro” kitoblari dastlab ko’pgina zaif hadislarni ham o’z ichiga olgan edi. So’ng, zaif hadislarni olib tashlab, sahihlarini saralab olganlar va bu kitoblarini “Al-Mujtaba” deb nom berganlar. Ushbu kitob bizning davrimizgacha yetib kelgan. Imom Nasoiyning “Al-Mujtaba” ni yozishlariga sabab u kishi “As-Sunanul-Kubro” kitobini yozgach Ramla degan joyning amiriga taqdim qilganlarida, amir: “Buning hammasi sahihmi?”, – deb so’ragan. Imom esa: “Bunda sahih ham, hasan ham bor”, – dedilar. Shu chog’ amir sahihlarini ajratishni so’radi. Shu munosabat bilan Imom Nasoiy “As-Sunanul-Kubro” kitoblaridan sahih hadislarni tanlab “Al-Mujtaba” yoki “As-Sunanus-Sug’ro” deb nomlanuvchi kitobni yaratdilar [3- 270 B.].

Ushbu kitob oltita “Sahih” deb nomlangan kitoblarning biri hisoblanadi. U birinchi marta 1256-hijriy (milodiy 1840-yili) sanada Hindistonda chop etilgan va eng ishonchli hadis kitoblaridan hamda hadis ulamolari tarafidan zaif hadislar eng kam, majruh kishilari yo’q kitoblardan deb tan olingan. Shu o’rinda Abu Dovud va Imom at-Termiziy hadislariga solishtiriladi. Shuningdek, bu kitob hadislarni bir o’rindagina keltirishga, zarurat tug’ilgandagina boshqa joyda rivoyat qilishga ehtimom qiladi. Bir vaqtning o’zida hadislardan fiqh hukmlarini illatlari bayoni bilan chiqarishga e’tibor beradi. Bu zotning kitoblariga ko’plab sharhlar yozilgan. Bugungi kunda ham olimlar tomonidan uning kitoblari ustida izlanishlar olib boriladi va o’rganishadi.

Ulamolarning e’tiroflari orasida Tojuddin Subkiyning quyidagi so’zlari alohida e’tiborga sazovor: “Men shayximiz Hofiz Abu Abdulloh Zahabiydan so’radim: “Sahih” sohibi Imom Muslim hofizroqmi yoki Imom Nasoiymi?” U: “Imom Nasoiy”, dedi. So’ng shayx Imom Voliddan so’radim, u ham shayximizning fikrini tasdiqladi” [6].

Imom Nasoiy hadislarining yoshlar va o’smirlar tarbiyasiga ham ahamiyatli jihatlari kattadir. Chunki yurtimizda Islom dini asosiy din hisoblanadi va ko’plab insonlar dinning mohiyatini tushunish uning muqaddas bitiklarini o’qishga ehtiyoj sezishishadi. Ayniqsa, o’sib kelayotgan yosh avlod ongida ma’lum diniy dunyoqarash va fikrlar shakillanmaganligi sababli ular har qanday dinga aloqdor ma’lumotlarni ham to’g’ri deb qabul qilavriladi va natijada ularning dinni niqob qilib olgan oqimlarga tushib qolishlari ham hech gap emas. Islom dinining muqaddas kitobi bo’lmish Qur’on ushbu manbalar ichida eng to’g’risidir va hadislar ushbu muqaddas bitiklarni ma’nosini anglash, tushunish va to’g’ri talqin qilishga yordam beruvchi vositachi hisoblanadi. Shu bois yoshlar Imom Buxoriy, Imom At-



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Termiziy va Imam Nasoiy kabi ulamolarning ishonchli hadislar to'plamlarini mutolaa qilishlari maqsadga muvofiqdir. Misol uchun, Imom Al-Buxoriyning hayoti va hadislar to'plamining maktab adabiyot darsliklariga kiritilishi bejiz emas.

Imom Nasoiy rivoyat qiladi: "Nabiy sollallohu alayhi vasallam: "Uch kimsa borku Alloh azza va jalla qiyomat kuni ularga (rahmat nazari ila) qaramaydi. Bu kimsalar ota-onasiga oqq bo'lganlar, erkakshoda ayollar, mast qiluvchi ichimlik ischishga mukkasidan ketganlar va berganini minnat qiluvchi kimsalar" deydilar". Ushbu rivoyatning asl zamirida nafaqat yoshlar, balki katta-yu kichiklarning tarbiyaviy manfaatlari uchun foydali bo'lgan chuqur ma'no yotadi. Uning barcha hadislarini insonlar orasida oqillik, kamtarlik, insoniylik fazilatlari, dovyuraklik, hurmat, birdamlik, fidokorlik va shunga o'xshash ezgu fazilatlarni targ'ib qilishga xizmat qiladi. Bundan tashqari uning hadislarida sog'lom oila muhitini shakllantirish uchun mos keladigan hadislar ham mavjud, masalan, uning hadislarida onaning oiladagi o'rni va qadrini ulug' deb hisoblanadi. Imom nasoiyning shu va shu kabi hadislarini yoshlar ongida to'g'ri dunyoqarash va fazilatlarni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi va Islom dinini anglashida poydevor vazifasini o'taydi.

Ul zodning ezgu fazilatlari bilan xalq orasida hurmatga sazovor bo'lgan edilar. U o'zing umrining ko'p yillarini Misrda o'tkazdi. U 915 (hijriy 303) -yili 88 yoshida Makka shahrida vafot etib, Safo va Marva yaqinidagi qabristonga dafn qilingan [7].

Xulosa sifatida aytadigan bo'lsak, Imom Nasoiy hadis ilmi rivojlangan davrda yashab ijod etgan shaxs sifatida bu ilmga katta hissa qo'shgan muhaddislardan hisoblanadi. O'sha zamonlarda ko'plab to'qima hadislardan sahihlarini ajratib olish va to'plam holiga keltirish o'ta mushkul va sharaflilik ish bo'lgan. Imom Nasoiy hadis yig'ish maqsadida ko'plab yurtlarga borib, olti sahih to'plamdan birini yozishga muvaffaq bo'ldi. Islom olamida mashhur o'nlab shogirdlarni tarbiyalagan. Imom Nasoiy kabi buyuk allomalarning hayot yo'li, qoldirgan bebaho me'rosini o'rganish, kun sayin muammo bo'lib borayotgan diniy bahs-munozaralarning ijobiy yechimida katta ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, uning hadislarini va islomiy rivoyatlari xaqdan xalqqa o'tib kelmoqda va yoshlar tarbiyasiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th Dec., 2023

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Imom al-Buxoriy – Muhaddislar sultoni / Usmonjon hoji Temurxon og'li, Baxtiyor Nabixon o'gli – T.: “O'zbekiston milliy ensklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 112 B.
2. English Translation of Sunan An-Nasa'I - Ahmad bin 'Ali An-Nasai IAhrnad bin 'Ali - An-Nasai-Riyadh – Canada.: “Maktaba Dar-us-Salam” King Fahd National Library Catalog-in-Publication Data, 2007. – 876 P. (ISBN: 978-9960-58-760-8)
3. Islom Ensiklopediyasi / Ne'matulla Ibrohimov, Zuhridin Husniddinov – T.: «O'zbekiston milliy entsiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2004. – 357 B.
4. <https://ares.uz/uz/maqola-sahifasi/imom-buxoriy-merosining-manaviy-ahloqiy-ahamiyati>
5. Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Hilol-nashr nashriyoti. – Toshkent 1-juz.
6. Sunanun Nasoiy. Muqqaddima. Dorus salom. Ar-Riyod. 1999.
7. <https://en.m.wikipedia.org/wiki/Al-Nasa%27i>



E- Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings

